

DOI 10.36074/logos-01.10.2021.v2.33

YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA AMALIY SAN'AT TA'LIMINING O'RNI VA AHAMIYATI

Gulomova Nozima Xotamovna
dotsent v.b.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Abdusalomova Xadicha G'ayratjon qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 2-kurs talabasi

Abdusalomova Muslima G'ayratjon qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 3-kurs talabasi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarda grafik savodxonlik bo'yicha o'quv kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini uzviyligini va uzluksizligini ta'minlashga oid metodik materiallar berilgan bo'lib, amaliy san'at darslarida ulardan foydalanishga oid metodik tavsiyalar orqali bayon etilgan.

O'zbekiston xalqining tarixi, qadriyatlarini, ilm-fan, madaniyatdurdonalarini har tomonlama ilmiy o'rganish va tahlil etish g'oyat muhimdir. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'z asarlarida yoshlarga yuksak ishonch bildirib, ularni barkamol avlod deb yuksak qadrlaganlar va shunday degan edilar: *"Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.*

Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi".¹ Demak, bu jarayonda ta'lim turlarida faoliyat yuritayotgan murabbiylar, professor-o'qituvchilarning o'rni, ularning fidokorona mehnati va salohiyatiga ehtiyoj mavjud. Ayniqsa oliy ta'lim muassasalarida sifatli va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash lozim bo'ladi.

Shu ma'noda mamlakatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z ma'ruzalaridan birida *"...nafaqat akademik ilm-fanni, balki oliy o'quv yurtlaridagi ilm-fanni yanada rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi"* deya ta'kidladilar².

Bugungi kunda o'rta maxsus va kasb-hunar tizimidagi **Professional ta'lim** - boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim darajalariga ajratilgan bir paytda o'rta ta'lim muassasalarida asosiy faoliyat o'quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirishga katta e'tibor qaratilmoqda [1-6]. Mazkur muassasalarda milliy san'atimizga oid bilimlarni rivojlantirish ishlarining yanada takomillashtirilgan shakllari

¹Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., "Ma'naviyat", 2008. 61-bet.

²Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2014 yildagi Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. – T., "O'zbekiston", 2017. 46-bet.

o'tkazilayotan amaliy tadbirlarda o'z aksini topmoqda. Shu maqsadda bugungi kunda ta'lim tizimida yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda [7-14].

Ota-bobolarimiz qadimiy obidalarni nafis naqshlar bilan bezar ekanlar, zavq olish bilan bir qatorda ular orqali o'z orzu-umidlarini, muhabbatlarini, tilaklarini kuylaganlar. Naqqosh ota-bobolarimiz inson ruhiyatini juda chuqur va har taraflama o'rganib, uylarni ajoyib naqsh nigorlar bilan boyitganlar. Naqshlangan uyda kishilar xotirjam, ruhiy osoyishtalik og'ushida bo'lishi, uzoq umr ko'rishini donishmand bobolar asrlardavomida hayotiy tajribalar asosida ilg'aganlar. Qadimda naqqoshlik san'ati asta-sekinlik bilan rivojlangan. Shu sabab milliy naqqoshlik san'ati tilini bilish uchun naqshning har bir unsuri va ranglarining ramziy alifbosini uzoq vaqt davomida o'rganmoq zarur deb tushunilgan. Boshqa ijodiyot sohalarida bo'lgani kabi amaliy san'at yo'nalishida ijobiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi. O'zbekiston amaliy san'atining hozirgi bosqichdagi asosiy yo'nalishlardan biri naqqoshlik san'atiga yoshlarda qiziqish uyg'otish masalalari tobora rivojlantirildi. Bunda xalq madaniyati, uning haqiqiy merosi va o'ziga xosligi, qayta tiklanayotgan milliy san'at va hunarmandchilik yo'nalishida hal qiluvchi ilmiy omilga aylandi [15-19]. Shunga ko'ra o'sib kelayotgan yosh avlodda milliy qadriyatlar tizimini shakllantirish, o'quvchi shaxsining milliy tafakkurini, ongini san'at vositalari orqali rivojlantirish usullarini izlash masalalari umumiy dolzarblik kasb eta boshladi. Shu bois, soha mutaxassislari oldida milliy naqsh o'rgatishni turli yo'nalishlarda tashkil etishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish, sohani metodik ta'minot yordamida kuchaytirishning ilmiy masalalari dolzarb pedagogik muammo sifatida yuzaga chiqa boshladi. Yoshlarni mehnat qilishga, turli hunarlarni egallashga da'vat qiluvchi fikrlar yozma va og'zaki manbalarda juda ko'p. Sharqning buyuk mutafakkirlarining qimmatbaho asarlarida bu masalaga juda katta e'tibor berilgan. Pandnomalar, nasihatlar, o'g'itlar, hunarlar risolalari, tarixiy asarlardagi tavsiflar, nasriy va nazmiy bayonlarda, g'azallarda, ta'limotlarda o'z aksini topgan. Bundan tashqari naqqoshlik namunalariga munosabat va fikrlar Abu Nasr Forobiy, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib va boshqalarning pedagogik ta'limotida mavjud. Ahmad al-Farg'oniy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiylarning tabiiy fanlarga oid asarlarida mazkur muammo alohida o'rin egallaydi [20-25]. Ushbu mutafakkirlarning fikrlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yuqotgani yo'q. Mazkur fikrlar ilmiy mulkka aylangan holda, yosh avlod ta'lim-tarbiyasida foydalanilmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston milliy naqqoshligi tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Uning mumtoz namunalari ko'pgina obidalarda, buyumlarda hozirgi paytgacha saqlanib qolgan va ular turli yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda o'rganilgan. Naqqoshlik san'ati tarixi, falsafasini o'rganishda turli ilmiy soha olimlaridan B.Denike, V.Nilsen, V.Manakova, G.Pugachenkova, L.Rempel; naqqoshlik san'atining boshqa amaliy san'at turlari bilan bog'liq mazmuni V.Vereshagin, S.Dudin, B.Romberg, V.Stasov ishlarida amalga oshirilgan. Shuningdek muammoning tub mohiyatini ochishda chet ellik olimlar K.Kresvell, E.Kyunnel, A.Rigllarning tadqiqotlarida yoritilgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning ijodkorligini shakllantirish muhim omil bo'lib hisoblanadi. Ijod qilishning maqsadi amaliy ishlarida ijodkorlikka nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir. Mazkur maqsadni amalga oshirishda bir qator vazifalarni hal etish talab qilinadi. Ijodkorlikni tashkil etishda hal etiluvchi vazifalar ko'p qirrali

bo'lib, u o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatiga amaliy va axloqiy tayyorgarlikning barcha tomonlarini qamrab oladi:

- Ijodkorlikning mohiyatini anglatish orqali talabalarga ijodning shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi rolini yoritib berish;
- Inson ijodkorligi hamda ijod mahsuli bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni qadrlash, asrab-avaylashga o'rgatish;
- Ijod qilishga nisbatan rag'batni, shuningdek, muhabbatni uyg'otish;
- Ijodkorlik faoliyatini jamoa asosida tashkil etish;
- Ijodni ilmiy asosda tashkil etish borasida ijodkorlik ko'nikmasi va malakalarini shakllantirishni yuzaga keltirish;
- Muayyan kasb-hunar sirlarini o'zlashtirishga erishish va ijod qilish.

Yosh avlodning ijodkorlik faoliyati quyidagi yo'nalishlarda rivojlantiriladi va tarkib toptiriladi: Ijodkorlik mustaqil faoliyat sifatida shakllantiriladi; Ijodkorlik faoliyati jarayonining mohiyatini o'zlashtirilishiga erishiladi; Ijodkorlik faoliyatining turli shakllari vujudga keltiriladi [26-30]. O'quvchilar ta'lim jarayonida va darsdan tashqari sharoitlarda ijodkorlik ijtimoiy jamiyatda tutgan o'rni va rolini, inson kamolotini ta'minlash omili ekanligini, shaxsni qobiliyati va iqtidorini ijodkorlik jarayonida takomillashib borishini hayotiy misollar yordamida bilib olishlari lozim. Ijodkorlik ta'limi va tarbiyasini tashkil etishda bugungi kunda an'anaviy va noan'anaviy shakllardan foydalanilmoqda [28-32]. Xususan, mehnat bayramlari, ishlab chiqarish ko'rgazmalari, hashar, «mohir qo'llar» tanlovi, «shahar ustaxonasi», yordamchi xo'jalik, «Yosh radio-texniklar» faoliyati, shuningdek, ustoz-shogird an'analari asosida faoliyat olib boruvchi yakka tartibdagi kasb-hunar ta'limi vositasida amaliy sa'nat ta'limini sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] Валиев, А. Н., Туланова, Д. Ж., & Гуломова, Н. Х. (2018). Современные педагогические и инновационные технологии обучения на занятиях по черчению. Молодой ученый, (3), 183-184.
- [2] Туланова, Д. Ж., & Гуломова, Н. Х. (2018). Технология и условия проведения дидактических игр в процессе преподавания черчения в вузе. In Образование как фактор развития интеллектуально-нравственного потенциала личности и современного общества (pp. 89-93).
- [3] Gulomova, N. (2021). Use of interactive methods for students in teaching drawing lessons (on the example of views). ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1637-1642.
- [4] Saydaliyev, S., & Gulomova, N. (2019). Development of Spatial Thinking of Students Based on the Traditions of Eastern Architecture. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 14(2), 210-214.
- [5] Bulatov, S. (2021). Principles of Using Scientific Discoveries in Modernization of The Art Education System. Psychology and Education Journal, 58(2), 1221-1225.
- [6] Гуломова, Н. Х., & Туланова, Д. Ж. (2017). Использование законов перспективы при обучении изобразительному искусству: Материалы науч.-практ. конф. Какандский государственный педагогический институт (Республика илмий амалий конференция мақолалари тўплами. Кукон Давлат педагогика институти). In Какандский государственный педагогический институт (Республика илмий амалий конференция мақолалари тўплами. Кукон Давлат педагогика институти).
- [7] Gulomova, N. (2021). CHIZMA GEOMETRIYA, CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARGA TESTLAR ORQALI ULARNING BILIMINI ANIQLASH. ГРААЛЬ НАУКИ, (4), 404-408.
- [8] Saydaliyev, S. S., & Gulomova, N. K. (2015). UMUMIY O 'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI SIFAT VA SAMARADORLIGINING OSHIRISH. FORMATION A CULTURE OF INDEPENDENT THINKING IN THE EDUCATIONAL PROCESS, 161.
- [9] Саидалиев, С. С., Гуломова, Н. Х., & Туланова, Д. Ж. (2017). Методы эффективного использования законов перспективы при обучении изобразительному искусству. Молодой ученый, (7), 462-469.
- [10] Рихсибаев, Т. (2013). Еще раз о трисекции угла, но не последней. Журнал «Педагогик таълим, 6, 70-74.

- [11] Abdusalomova, X. G. A. Q., & Gulomova, N. X. (2021). SAN'AT VA MADANIYAT SAHOSIDAGI ISLOHOTLAR BILAN ERTANGI KUNGA YANGICHA NAZAR. *Scientific progress*, 2(2), 663-669.
- [12] Валиев, А. Н. (2021). Об Особенности Перспективы Простых Геометрических Фигур И Проблемах В Ее Обучении. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES*, 2(4), 54-61.
- [13] Талипов, Н., & Талипов, Н. (2021). ТАЛАБАЛАРНИ БАДИИЙ ТАЪЛИМ ОРҚАЛИ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. Збірник наукових праць ЛОГОС.
- [14] Абдирасилов, С. Ф., Толипов, Н. Х., & Толипов, Н. Н. (2017). Эффективность исторического подхода в художественном обучении. *Молодой ученый*, (20), 417-421.
- [15] Jabbarov, R. (2019). Formation of Fine Art Skills by Teaching Students the Basics of Composition in Miniature Lessons. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(1), 285-288.
- [16] Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS'CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. Збірник наукових праць ЛОГОС.
- [17] Расулов, М. (2021). Научить студентов во внешкольных учреждениях составлять композиции на уроках резьбы по дереву. Збірник наукових праць ЛОГОС.
- [18] [Xalilov, R. (2021). Important factors for teaching students to work on landscape composition. Збірник наукових праць ЛОГОС.
- [19] Xalimov, M., & Farxodova, Z. (2021). DEVELOPING STUDENTS'CREATIVE ABILITIES BY MAKING PROBLEM SOLUTION SITUATION IN DRAWING SUBJECT. Збірник наукових праць ЛОГОС.
- [20] Авазбаев, А., Джураев, Ю., & Турсунходжаева, З. (2021). Technologik ta'lim jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish shart-sharoitlari. *Общество и инновации*, 2(4/S), 171-176.
- [21] Muratov, H. (2021). THE IMPORTANCE OF ORGANIZATION AND MANAGEMENT INDEPENDENT EDUCATION IN THE LEARNING PROCESS. Збірник наукових праць ЛОГОС.
- [22] Аширбаев, А. (2021). ЧИЗМАЧИЛИК ТАЪЛИМИНИНГ УЗВИЙЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ВА УНИ ТАКОМИПЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *ГРААЛЬ НАУКИ*, (6), 434-439.
- [23] Jabbarov, R. (2021, June). HISTORICAL DEVELOPMENT OF TRADITIONS AND STUDENT TRADITIONS. In Конференции.
- [24] Xolmuratovich, M. X., & Ravshanovich, J. R. (2020). Amaliy va badiiy bezak san'ati. *UO'K*, 76, 075.
- [25] Ravshanovich, J. R. (2021). Formation Of Creative Abilities Of Students By Teaching The Genre" Landscape" Of Fine Arts. *International Journal of Academic Pedagogical Research (IJAPR) ISSN*, 2643-9123.
- [26] Джаббаров, Р. (2021). Sharq uyg 'onish davri yetuk san'atkori buyuk miniatyurachi musavvir Kamoliddin Behzod ijodi ta'sirida yuzaga kelgan o 'ziga xos yo 'nalish. *Общество и инновации*, 2(5/S), 59-67. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5/S-pp59-67>
- [27] Жаббаров, Р. (2019). МАНЗАРА РАНГ ТАСВИРИ. НИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. *UZBEKISTAN STATE INSTITUTE OF ARTS AND CULTURE* <https://uzjournals.edu.uz/cacenas/>, Culture and Arts of Central Asia, pp-48-52, ISSN, 2181-8932.
- [28] Мурадов, Ш. К., Халимов, М. К., Мирзалиев, З. Э., & Рамазанова, Г. С. (2017). Определение параметров формы и положения кривых 2-го порядка. *Молодой ученый*, (7), 454-457.
- [29] Расулов, М. А. (2020). Маликов Козим Гафурович; Жаббаров Рустам Равшанович." Прикладное искусство и художественно декоративное искусство.
- [30] Tashimov, N. (2019). Ways of Development of Cognitive and Graphic Activity of Students. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(1), 212-214.
- [31] Усмонов, Б. Ш., Дадабоева, Д. И., & Валиева, З. Т. (2021). NX-ЭТО ИНТЕГРИРОВАННОЕ РЕШЕНИЕ ДЛЯ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ПРОДУКТОВ, РАЗРАБОТКА И ПРОИЗВОДСТВО. *Scientific progress*, 2(1), 825-834.
- [32] Аширбаев, А. (2021). Chizmalarga o 'lcham qo 'yishda yuzaga kelishi mumkin bo 'lgan tipik xatolar va ularning oldini olish omillari. *Общество и инновации*, 2(3), 7-15.